Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy moliyaviy omillarini iqtisodiy baholashning tashkiliy iqtisodiy ko‘rsatgichlarining vazifalariga quyidagilar kiradi;

1. Ekologik muammolar: tuproqning buzilishi, floraning yo‘q bo‘lib ketishi, unumdor yerlarni sho‘rlanishi, tog‘li va sanoat hududlariga yetkazilga zararlar, mineral qazib olish, havo, suv va tuproqning asosiy manbalarga yetkazilayotgan zararlar, qazib olish va qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini, masalan, ko‘mir, neft, tabiiy gaz va boshqalar.

2. Foydali qazilmalarning tez kamayishi, mineral resurslarga talabning ortishi bilan bog‘liq. Natijada, energiyaga bo‘lgan talab ortib bormoqda va ko‘proq chiqindilar hosil bo‘lmoqda.

3. Aholiga ekologik va ijtimoiy ta’sirlar: tog‘-kon changlari sog‘liq muammolarini keltirib chiqaradi; ba’zi zaharli yoki radioaktiv minerallarni qazib olish hayot uchun xavflidir; qazib olish jarayonida dinamit portlashlari juda

xavflidir, chunki ular juda zaharli gazlarni chiqaradi; yer ostida qazib olish xavfliroqdir yer usti konlarini qazib olishdagi holatlar, chunki ko‘chkilar, suv toshqini, yo‘qligi sababli avariyaarning yuqori ehtimoli bor.

Sanoat korxonalarida lahimlarni shamollatishda chiqariladigan zararli moddalarni chiqarmaslik uchun mavjud texnologiyani takomillashtirish, yangi innovatsion texnologiyalar yordamida ularni tutib qoladigan va zararsizlantiradigan uskunalardan foydalanish zarurdir. Yangi tashkil etilgan fabrikalardagi chiqindilarning vayron qiluvchi kuchi bilan kurashish uchun muhandislik inshootlari (to‘g‘on, damba, to‘siqlar) qurish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Statistika agentligining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-avgust oyida 62 523 ta yangi korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etilgan. Ushbu davrda hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni:

Toshkent shahri – 11 505 ta

Samarqand viloyati – 5 862 ta

Farg‘ona viloyati – 5 758 ta

Toshkent viloyati – 4 954 ta

Qashqadaryo viloyati – 4 706 ta

Qoraqalpog‘iston R. – 4 696 ta

Xorazm viloyati – 4 535 ta

Buxoro viloyati – 4 153 ta

Namangan viloyati – 3 360 ta

Andijon viloyati – 3 094 ta

Jizzax viloyati – 3 017 ta

Navoiy viloyati – 2 812 ta

Surxondaryo viloyati – 2 444 ta

Sirdaryo viloyati – 1 627 tani tashkil qiladi.

Mana shu yangi tashkil etilgan korxonalarimiz soni 8 oyda 62 523 tashkil qilsa, bu iqtisodiyotimizni rivojlanishiga zamin yaratadi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham borki, bu korxonalar tabiatga yetkaziladigan zararni oldini olish uchun shundek innovatsiyani qo‘llash yoki yaratish kerakki ertaga yashil iqtisodiyotimizga putur yetmasligi kerak.

O‘zbekistondagi neft-gaz konlari qaysi kompaniyalarga tegishli?

O‘zbekistonda 295 ta neft va gaz koni ochilgan bo‘lib, shulardan 60 % qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalar ixtiyorida.

— Saneg (Kipr, Belvor Holding – 98%, Gas Project Development Central Asia – 2%) 105 ta;

— Lukoyl 13 ta;

— Gazprom 2 ta;

- Epsilon (AQSh) 18 ta;
- Surhan Gas Chemical (Altmax Holding 75%, Gas Project Development Central Asia 5%, “O‘zbekneftgaz” – 20%) 1 ta (eng yirik konlardan biri hisoblangan “Mustaqillikning 25 yilligi” koni);
- Petromaruz (Britaniyada ro‘yxatdan o‘tgan Rossiya kompaniyasi) 1 ta;
- CNPC (Xitoy) 13 ta.¹

Shuningdek, yurtimizda qazib olingan gazni o‘zimiz xorijiy kompaniyalardan sotib olishimiz kerak ekan. Masalan, 2018 - yilda Lukoyldan 5 mlrd kubometr gaz sotib olingan. 1 ming kubometrning narxi \$146 ni tashkil etdi va aholiga bu \$40 dan sotildi.

Natijada Rossiya kompaniyasidan \$600 mln qarzdorlik vujudga kelgan ²

Korxonalaridagi tabiatni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarining samaradorligini oshirib borilishi korxonalarining yashil iqtisodiyotga ta‘sirini iqtisodiy baholashning tashkiliy iqtisodiy ko‘rsatgichlari iqtisodiy natijalar samaradorligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy moliyaviy omillari shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida
2. O‘zbekiston respublikasi oliy majlisi senati kengashining qarori KQ-547.08.2023
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 297-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida
4. A.Vahobov, S. Xajibakirov, Sh. Xo‘jayorov “Yashil iqtisodiyot” Darslik. Toshkent. Unversitet
5. Mavlonov Sh.Sh “Yashil iqtisodiyot” O‘quv qo‘llanma Toshkent. Makon savdo pirint 2024
6. Mavlonov Sh.Sh “Iqtisodiy manbaalardan samarali foydalanishda yashil iqtisodiyotning o‘rni ” Экономика социум” 2024 ISSN 2225-1545

www.stat.uz

¹ <https://kun.uz/uz/news>

² <https://cronos.asia/centralnaya-aziya/pochemu-v-uzbekistane-deficit-gaza>

**ZIYORAT TURIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK
JIHATLARI (LANGAR OTA ZIYORATGOHI)****Olimova Dilsuz Abduxalimovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Geografiya” kafedrası o‘qituvchisi

*E-mail: olimovadilsuz84@gmail.com***Mo‘minov Humoyun Nurbek o‘g‘li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat turizimini rivojlantirish, turistik marshrutlarni tashkil etish, Langar ota ziyoratgohining tarixi hamda maqbaraning geografik tuzilishi, u yerda sayyohlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: Turizm, ziyorat, ziyoratgoh, Langar ota, avliyo, shayx, maqbara, masjid, madrasa, imom.

Abstract: This article describes the development of pilgrimage tourism, the organization of tourist routes, the history of the Langar ota shrine and the geographical structure of the mausoleum, the conditions created for tourists there.

Key words: Nature, resource, effective use, green economy, ecological and economic education, pedagogical conditions, ecological resource, economic damage.

Аннотация: В этой статье рассказывается о развитии паломнического туризма, об организации туристических маршрутов, об истории святыни якоря отца, а также о географическом строении мавзолея, об условиях, созданных там для туристов.

Ключевые слова: Туризм, паломничество, святыня, якорь отца, святой, Шейх, мавзолей, мечеть, медресе, имам.

Langar ota maqbarasi — O‘zbekistondagi madaniy meros obyekti. Inshoot Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Ko‘kbuloq mahallasida joylashgan bo‘lib, taxminan XV asrda barpo etilgan[1]. Bugungi kunda mazkur hudud Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida) Davlat mulki hisoblanadi. “Vaqf” xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asnosida birlashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan. Langar ota maqbarasi davlat muhofazasiga olingan.

Xalq orasida bu go‘sha haqida 600 yil davomida turli xil rivoyatlar, asarlar yaratilgan. Bu kishining asl ismlari Shayx Muhammad Sodiq bo‘lgan. Langar ota o‘zi yashab o‘tgan vaqtidagi muqaddas Qur‘oni Karimni eng go‘zal tilovat qiladigan Qori bo‘lgan. Ushbu ziyoratgohga tashrif buyurgan inson ajoyib bir ruhiy sokinlik sezadi.

Langar ota maqbarasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Langar ota ziyoratgohida joylashgan. Ziyoratgoh tarkibida, Langarota masjidi ham mavjud. Maqbara masjiddan bir soy naridagi tepalik ustida bunyod etilgan. Maqbaraning atrofi qabriston bo‘lib, tobutxonadan 100 metr uzoqlikda xilxona joylashgan. Mazkur yodgorlik Langarota masjidi qurilganidan 100 yil o‘tib bunyod etilgan. Maqbara qurilishidagi me‘morchilik uslubi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasini bilan juda o‘xshash. Langar ota maqbarasi pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, eshik va deraza darchalari jimjimador naqshlar bilan bezaklangan. Maqbarada jami 5 ta qabr mavjud, ularning 3 tasiga qabrtoshi o‘rnatilgan.



“Langar” atamasi mozar, qabriston yoki ziyoratgoh, shu bilan birgalikda karvonsaroy, karvonlar to‘xtash joyi, bekati degan ma’nomlarni anglatadi. Maqbara o‘z davrida ayni shunday hududda joylashgan. Maqbarada Abulhasan Ishqiy va uning yaqinlari dafn etilganligi sababli ham bu inshoot Shayx Abulhasan maqbarasi nomi bilan ham mashhur.

Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, «Langar ota» atamasi shayx Abulhasanning kunyasi hisoblangan. Qadimshunos olim Abdusobir Rayimqulovning tadqiqotlariga ko‘ra, Langar ota maqbarasiga tasavvuf ta’limotining ishqiya tariqati bilan shug‘ullanuvchi shayxlar Abulhasan Ishqiy, o‘g‘li shayxzoda Muhammad

Sodiq va nabirasi Abulhasan Oxund dafn etilgan. To‘rtinchi qabrda hechqanday qabrtoshi mavjud bo‘lmaganligi uchun uning kimga tegishli ekanligi aniq emas.

Langar ota ziyoratgohi O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatidagi qadimiy ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Bu ziyoratgoh ko‘pincha islom olamida mashhur bo‘lgan avliyo va solihlarning yashagan joyi sifatida tanilgan. Langar ota ziyoratgohi asosan sufi ta'limotiga mansub bo‘lib, u yerda ko‘plab sufi allomalar va diniy shaxslar yashab o‘tgan. Ziyoratgohga tashrif buyurgan odamlar bu yerda ibodat qilishadi, duolar o‘qishadi va ruhiy tinchlik topishadi. Ziyoratgoh hududida joylashgan maqbara va me'moriy yodgorliklar ko‘plab sayyohlar va ziyoratchilarni jalb qiladi. Langar ota ziyoratgohi tarixi boy bo‘lib, bu yerda turli davrlarda qurilgan masjidlar, maqbaralar va boshqa diniy inshootlar mavjud. Bu joy, ayniqsa, sufi ta'limotiga qiziqish bildiradigan insonlar uchun qimmatli hisoblanadi.

Ziyoratgohni ziyorat qilish paytida mehmonlar qadimiy arxitektura va san'at namunalarini ko‘rishlari mumkin. Bu joy sufi madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblanib, hozirgi kunda ham diniy va madaniy merosni saqlab kelmoqda.

Langar ota ziyoratgohi O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatidagi yirik ziyoratgohlardan biri bo‘lib, u sufi ta'limoti va islom olamidagi muhim diniy markazlardan biridir. Ushbu ziyoratgohning tarixi va madaniy merosi boy bo‘lib, ko‘plab sayyohlar va ziyoratchilarni jalb qiladi.

Langar ota ziyoratgohi XIV asrda barpo etilgan bo‘lib, u yerdagi asosiy maqbara esa Abu Bakr ibn Muhammad ibn Nasr al-Haddadga tegishli. Abu Bakr al-Haddad islom olamida mashhur bo‘lgan sufi olim va diniy shaxs sifatida tanilgan. Langar ota ziyoratgohi uzoq yillar davomida sufi ta'limoti va islom dini tarixi uchun muhim markaz bo‘lib xizmat qilgan.



Langar ota ziyoratgohi arxitekturasi o‘ziga xosligi va go‘zalligi bilan ajralib turadi. Ziyoratgohning asosiy qismlari maqbara, masjid va boshqa diniy inshootlardan iborat. Maqbara me'morchiligida o‘ziga xos sufi an'alarini aks ettiradi. Ushbu inshootlar ko‘pincha mohirona ishlangan koshinlar, naqshlar va boshqa bezak elementlari bilan boyitilgan.

Ziyoratgohning asosiy qismi bo‘lgan maqbara Abu Bakr al-Haddadga bag‘ishlangan. Ushbu maqbara XIV asr arxitektura uslubida qurilgan bo‘lib, unda turli xil bezaklar, koshinlar va yog‘och o‘ymakorlik ishlari mavjud. Maqbaraning tashqi va ichki qismlari yuksak mahorat bilan ishlangan va bu joyning muqaddasligini ta’kidlaydi.

Diniy ahamiyati. Langar ota ziyoratgohi sufi ta’limoti va islom dini uchun muhim markazlardan biri hisoblanadi. Bu yerda ko‘plab sufi olimlar, avliyolar va diniy shaxslar yashab o‘tgan. Ziyoratgohda ibodat qilish va duolar o‘qish orqali ziyoratchilar ruhiy tinchlik va xotirjamlik topadilar. Ushbu ziyoratgoh sufi ta’limotining tarixi va merosini o‘rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Langar ota ziyoratgohi nafaqat diniy ziyoratchilar, balki tarix va arxitektura bilan qiziqadigan sayyohlar uchun ham qiziqarli joy hisoblanadi. Bu yerda sayyohlar qadimiy arxitektura, san’at va madaniyat namunalarini ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, ziyoratgoh hududida turli xil diniy va madaniy tadbirlar o‘tkaziladi, bu esa mehmonlarga sufi madaniyatining boy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. Langar ota ziyoratgohi O‘zbekistonning muhim diniy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixi, arxitekturasi va diniy ahamiyati katta. Ushbu ziyoratgoh nafaqat ziyoratchilar, balki tarix va madaniyat ixlosmandlari uchun ham qiziqarli va qimmatli joy hisoblanadi. Bu yerning qadimiyliги va muqaddasligi uni nafaqat O‘zbekiston, balki butun islom olami uchun muhim markazga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. AManbaa: www.centralasia-adventures.com “Temur g‘ori” O‘zME. A-harfi 2.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1992 yil 9 dekabr.
3. I.S.Tuxliyev “Turizm asoslari” fanidan o‘quv qo‘llanma, Samarqand 2010.
4. Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna “Turizm asoslari fanidan” o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2011.
- 5.M.N. Pardayev, R.Atabayev ma’ruzalar matni, Samarqand 2007.

**O‘ZBEKISTON TURIZMIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI****Rahmatov Ziyodullo Nosirovich**Toshkent davlat transport universiteti “Korporativ boshqaruv” kafedrası
mudiri. e-mail: ziyod_88@mail.ru**Iskandarov Kudrat Shuxratovich**

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti. e-mail:

mr iqsh 1993@mail.ru

***Annatsiya.** Maqolada biz turizm sohasining butun dunyo iqtisodiyotidagi tutgan o‘rni, O‘zbekistondagi rivojlanish darajasi, turizmni rivojlantirish bo‘yicha hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishamiz. Undan tashqari turizmning O‘zbekistondagi huquqiy asoslari va istiqboli porloq turizm yo‘nalishlari tahlili amalga oshiriladi.*

***Kalit so‘zlar.** Turizm, Jahon sayyohlik tashkiloti, ekoturizm, attraksion turizm, madaniy turizm, tur operatorlar, mehmonxona va motel.*

Kirish.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, turizm mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. 2023-yilda turizm xizmatlari hajmi 2 milliard dollardan oshdi va turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 2,5 foizni tashkil etdi va yildan yilga bu ko‘rsatkich yaxshilanib bormoqda. Katta turizm sohasiga ega rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10 foizgacha, orol va rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm ulushi 30 dan 50 foizgachani tashkil qilmoqda; Jahon tovar va xizmatlar eksportining 8 foizi turizm hissasiga to‘g‘ri keladi. Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zo 83 ta davlatda turizm yetakchi eksport sohalari beshligidan biri bo‘lsa, jahon mamlakatlarining 38 foizida bu soha valyuta tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, turizm daromadning muhim qismi hisoblangan davlatlarda u bandlikning asosiy sohasiga aylandi. Masalan, Seyshel orollarida aholining 66,7 foizi, Grenadada 52,2 foizi, Bogama orollarida 48,2 foizi, Islandiyada 33,3 foizi, Kiprda 22 va Tailandda 15 foiz aholi turizm sohasida band³. Birgina shu ma‘lumotlarning o‘zi ham turizmning dunyo mamlakatlari uchun qanday muhim ro‘l o‘ynayotganini ko‘rsatib turibdi.

JST ma'lumotlariga ko‘ra, uchinchi ming yillikda eng qisqa vaqt ichida eng katta qoniqishni ta'minlaydigan turizm mahsulotlariga talab yuqori bo‘ladi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun barcha zarur resurslar mavjud: qadimiy tarixiy me‘morchilik va xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari, qo‘riqxonalar,

³ <https://review.uz/post/sfera-uslug-v-napravleniyax-sovershenstvovaniya>

tabiiy landshaftlar va boshqalar. O‘zbekistonning 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasida turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi. 1,4 foizdan 28 foizgacha oshishi kutilmoqda.⁴

2024-yil O‘zbekiston turizmi uchun muhim yil bo‘lishi kutilmoqda, chunki Xiva islom olamining turizm poytaxti sifatida tanlangan. Undan tashqari Samarqandda 2023-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) poytaxti va UNWTO Bosh Assambleyasining 25-yubiley sessiyasi yuqori saviyada tashkil etildi. 2023-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 6 626,3 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 7 milliondan oshishi kutilmoqda.⁵

O‘zbekistonda ichki turizm ham jadal rivoj topmoqda, buni 2023-yilda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling!” dasturi doirasida Mahalliy sayyohlar mamlakat bo‘ylab shaharlarga 20 milliondan ortiq (2022-yilga nisbatan 76.3 foizga ko‘p) tashrif buyurishgani ham tasdiqlab turibdi. Shuningdek, Turizm qo‘mitasi ko‘magida hududlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mingdan ortiq, yosh fuqarolar uchun 570 mingdan ortiq sayohatlar tashkil etildi. Natijada ichki turizmni rivojlantirish prognozi ortig‘i bilan bajarildi. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlarining o‘rganishiga ko‘ra mamlakatimizda ichki turizm yo‘nalishlari bo‘yicha 1-o‘rinda ziyorat turizmi (53.7 foiz) va keyingi o‘rinlarda kurort turizmi, madaniy-ma‘rifiy turizm, sog‘lomlashtirish turizmi va sohil turizmi turar ekan. Shu bilan birga yoshlar orasida ekstremal sport, festival turizmi va agroturizmga qiziqish ortib bormoqda ekan.

1-jadval

Turistlar tashrifi (mln kishi)⁶

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Xorijiy sayyohlar soni	2.7	5.3	6.7	1.5	1.9	5.2	6.6
Mahalliy sayyohlar soni	10.5	12.5	14.7	3.5	5.8	11.4	20.1

Birgina yanvar-noyabr oylarida bir sayyohning mamlakatimizda bo‘lishi davomidagi o‘rtacha xarajatlari 326 dollarni tashkil etdi. Mamlakatlar kesimida Osiyo va Yevropadan kelgan bitta sayyoh o‘rtacha 1066 dollar, MDHdan 743

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasi

⁵ [Uzbekistan Tourism Industry Statistics 2024 \(tourcentralasia.com\)](https://tourcentralasia.com)

⁶ Stat.uz

dollar, qo‘shni davlatlardan 154 dollardan 257 dollargacha sarflagan, bu avvalgi davrlarga nisbatan bir necha barobar ko‘pdir. Davlat g‘aznasini to‘ldiruvchi bu mablag‘lar xalq turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan loyihalar va davlat dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltirilmoqda.

Fransuz tilidan tarjima qilingan turizm (tourisme, tour) atamasi “yurish”, “safar”, “sayohat” degan ma’nolarni anglatadi. Turizm - bu dam olish, ko‘ngil ochish, madaniy almashinuv yoki tadqiqot uchun safar va sayohatlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot tarmog‘idir. U turizmning attraksion turizmi, ekoturizm, madaniy turizm, biznes, tibbiy turizm va boshqalar kabi turli turlarini o‘z ichiga oladi. Turizm iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, madaniy merosni saqlashga yordam beradi va madaniyatlararo almashinuvni rag‘batlantiradi.

Turistik joylar - bu turli mamlakatlar va mintaqalardan sayyohlar va sayohatchilarni jalb qiladigan joylar yoki diqqatga sazovor joylar. Ular tarixiy obidalar, me‘moriy yodgorliklar, tabiiy bog‘lar va qo‘riqxonalar, muzeylar, plyajlar, tog‘-chang‘i kurortlari, shuningdek, turli dam olish va ko‘ngilochar maskanlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Turistik diqqatga sazovor joylar sayohatning asosiy maqsadi bo‘lib, sayohatchilarni ular tashrif buyuradigan joyning madaniy, tarixiy yoki tabiiy merosiga singdirish orqali ularning tajribasini boyitishga yordam beradi.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida tegishli qonun va qarorlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-son “Ipak yo‘lida turizm” har yili o‘tkaziladigan Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 904-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.2022 yildagi PQ-135-son “Faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. Turizm va madaniy meros vazirligining 26.07.2022 yildagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasida hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-338-son qarori. 2023-yil 26-apreldagi “Respublika turizm salohiyatini jadal rivojlantirish, shuningdek, mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-son qarori shular jumlasidan. Bundan tashqari turizm tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari ham qabul qilindi.

O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda 1,8 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida bu ko‘rsatkich 5,2 million xorijiy sayyohga yetgan, ya‘ni bir yil ichida 3,4 millionga oshgan. 2023-yilda sayyohlar soni 6,6 million xorijiy

fuqarolarga yetdi. Xorijlik sayyohlarning O‘zbekistonga tashrif buyurishidan asosiy maqsad O‘zbekistondagi YUNESKONing Butunjahon merosi ob’ektlariga kiruvchi tarixiy shaharlari va obidalari hisoblanadi. Undan tashqari hozirgi kunda O‘zbekistonda tibbiy turizm, ekoturizm, madaniy turizm va attraksion turizm kabi turlari ham jadal rivoj topmoqda. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining kelajagi ekanligini ko‘rsatadi. Quyida turizmni rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan ishlar yo‘nalishlari keltirilgan:

1. Yangi turistik obektlarni ochish. O‘zbekistonda sayyohlarni o‘ziga tortadigan go‘zal tarixiy joylar ko‘p. Hukumat ko‘proq sayyohlarni jalb qilish uchun ushbu obektlarni faol ravishda targ‘ib qilishni boshladi. Samarqanddagi Shohi-Zinda, Xivadagi Ichan-qal'a va boshqa ko‘plab me'moriy yodgorliklar qayta tiklandi va ta'mirlandi.

2. Viza olish tartibini soddalashtirish. Mustaqillik boshida viza olish tartibi ancha murakkab va qimmat edi. Biroq, hukumat sayyohlar e'tiborini jalb qilish uchun ushbu tartibni soddalashtirishga kirishdi. Bugungi kunga kelib 90dan ortiq mamlakatlar fuqarolari uchun O‘zbekistonga tashrif buyurish uchun viza kerak emas.⁷ O‘zbekiston uchun ham, boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi, vizani ham internet orqali olish mumkin.

3. Sayohat kompaniyalarini yaratish. Mustaqillik boshida O‘zbekistonga turizm asosan davlat miqyosida tashkil etildi. Biroq, davlat xususiy turistik kompaniyalarni yaratishni qo‘llab-quvvatlay boshladi. Hozirgi kunda 1500dan ortiq turistik kompaniyalari O‘zbekistonda o‘z faoliyatini olib bormoqda, bu esa turistlar sonining ko‘payishiga va turizm sanoatining rivojlanishiga olib keldi.⁸

4. Turizmni xalqaro miqyosda ommalashtirish. Hukumat O‘zbekistonning turizm sohasiga ko‘proq sayyohlar va investorlarni jalb etish maqsadida yildan-yilga tobora ko‘proq xalqaro sayyohlik ko‘rgazmalari va konferensiyalarida faol ishtirok eta boshladi.

5. Yangi mehmonxonalar va mehmon uylari qurish, shuningdek, turistlarning qulay yashashi va dam olishini ta'minlash uchun infratuzilmani rivojlantirish. 2023-yil 1-yanvar holatiga respublikamizda 1167 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish ob’yektlari faoliyat ko‘rsatmoqda (o‘tgan yilga nisbatan 7,6 foizga oshgan), shundan 1088 tasi mehmonxona, 15 tasi motel va 64 tasi boshqa qisqa muddatli joylashtirish joylaridir.⁹

6. Turistlar uchun madaniy dasturlar va tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan festivallar, konsertlar va ko‘rgazmalar tashkil etish. Birgina 2024-yilda

⁷ <https://www.mfa.uz/uz/pages/viza-uzb>

⁸ <https://uzbekistan.travel/ru/travel-agencies/>

⁹ <https://stat.uz/ru/press-tsentri/novosti-goskomstata/40771-respublikamizda-qancha-mehmonxona-va-shunga-o-xshash-joylashtirish-obyektlari-faoliyat-ko-rsatmoqda-2>

O‘zbekistonda 85 dan ortiq xalqaro sayyohlik ko‘rgazmalari, konferensiyalar va turli tadbirlar o‘tkazish rejalangan.¹⁰

7. O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda sayyohlik markazi sifatida tanitish maqsadida marketing kampaniyalari va aksiyalarini o‘tkazish.

8. Sog‘lom turmush tarzi va ekologik muammolarga qiziquvchi turistlarni jalb qilish maqsadida ekoturizm va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish.

Xulosa.

Turizm bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat boy madaniy va tarixiy merosga ega bo‘lib, butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati yangi turistik yo‘nalishlarni yaratish va ularni targ‘ib qilish uchun xorijiy turoperatorlarni jalb qilish bo‘yicha faol ish olib bormoqda. Butun dunyodan sayyohlarni jalb qilishning asosiy omillaridan biri shundaki, turistlar tarixiy joylar va diqqatga sazovor joylarni qayta tiklash va saqlashga qiziqish bildirmoqda. Shuningdek, mamlakatda yangi mehmonxonalar va mehmonxonalar qurilmoqda, shuningdek, sayyohlarning qulay yashashi va dam olishini ta‘minlash uchun infratuzilma rivojlanmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistonda sayyohlar uchun madaniy dasturlar va tadbirlar, jumladan, festivallar, konsertlar va ko‘rgazmalar tashkil etiladi. O‘zbekistonni sayyohlik yo‘nalishi sifatida targ‘ib qilish maqsadida marketing kampaniyalari va aksiyalar ham o‘tkazilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston mashhur sayyohlik maskani bo‘lib, bu joy o‘zining go‘zal tabiati, boy madaniyati, ajoyib me‘morchiligi va mahalliy xalqining mehmondo‘stligi bilan dunyoning turli burchaklaridan sayyohlarni o‘ziga tortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ubaydullayev C. va b. turizm v Uzbekistane//Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – T.

2. Soliyeva G. A., Dedajanov B.N., Turizm v Uzbekistane I rol marketingga v yego razvitii// Molodoy ucheniy. – 2020. № 5. – S. 132-134.

3. Buxarova F.M., Kurbonova Sh.B., Erkinova S.X., Razvitiya turizma v Uzbekistane v sovremennix usloviyax// International scientific and practical Conference. – 3-4may 2024.

4. Tuychiev, A. (2021). Scientific approaches to public-private partnership in the transport system of Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 100-105.

5. Tuychiev, A. (2021). Public-private partnership in the transport system of Undp. Aamerican journal of economic and business management, 4, 1-6.

¹⁰ <https://touristichka.ru/uzbekistan-poleznaya-informacziya-1/kalendar-meropriyatij-2023/>

6. Shuxratovich, I. K., & Muxtorjonovich, T. A. (2024). The Importance of Public-Private Partnership Models in the Development of Railway Stations. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 2(5), 53–55.

7. Akbarov, Mashxur, and Kudrat Iskandarov. “Yo‘lovchi tashish xizmatlari bozoriga ta’sir qiluvchi omillar va bozorning hozirgi holati tahlili.” *Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy* 2.11 (2022): 466-470.

8. Iskandarov, Kudrat. “Yo‘lovchi tashish xizmatlari bozorini rivojlantirishda marketing kommunikatsiyalarining ahamiyati.” *Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk* 2.11 (2022): 150-154.

9. <https://review.uz/post/sfera-uslug-v-napравleniyax-sovershenstvovaniya>

10. Stat.uz

11. [Uzbekistan Tourism Industry Statistics 2024 \(tourcentralasia.com\)](https://tourcentralasia.com)

12. <https://www.mfa.uz/uz/pages/viza-uzb>

13. <https://uzbekistan.travel/ru/travel-agencies/>

14. <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/40771-respublikamizda-qancha-mehmonxona-va-shunga-o-xshash-joylashtirish-obyektleri-faoliyat-korsatmoqda-2>

15. <https://touristichka.ru/uzbekistan-poleznaya-informacziya-1/kalendar-meropriyatij-2023/>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Salomov Farrux Komil o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

Turizm va marketing kafedrası o‘qituvchisi

salomov.farrux.94@mail.ru

Muxammadiyev Sardorbek Shokir o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

Turizm yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

sardorbek13072004@gmail.com

Kalit so‘zlar: turizm, ekologik turizm, “yashil” iqtisodiyot, rekreatsiya, atrof-muhit, qishloq turizmi, aktiv turizm, tabiiy resurslar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqamizning Turizm sohasining roli va ahamiyati to‘g‘risida tadqiq etilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik ob‘yektlardan, tabiiy resurslardan, turizmning yo‘nalishlari bo‘lmish rekreatsion turizm, aktiv turizm, ov turizmidan samarali foydalanish. Shuningdek sohani rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Ключевые слова: туризм, экологический туризм, “зеленая” экономика, рекреация, окружающая среда, сельский туризм, активный туризм, природные ресурсы.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль и значение туристической отрасли нашего региона в развитии «зеленой» экономики. Эффективное использование туристских объектов, природных ресурсов в развитии экономики, рекреационный туризм, активный туризм, охотничий туризм, являющиеся направлениями туризма. Также приводятся выводы и предложения по развитию отрасли.

Kirish. Turizm bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan sanoat asrining ajralamas qismidir. Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi va u bilan bog'liq ekologik muammolar mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda namoyon bo'lib, insoniyat oldiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ymoqda. “Yashil” iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib **yashil iqtisodiyot** deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

Asosiy qism. Hozirgi dunyoda ekologik muammolar tabiatga va insoniyatga tahdid solib turgan bir paytda, O'zbekistonni ham bu kabi muammolar chetlab o'tgani yo'q. Bu kabi murakkab tahdidlarni oldini olish va ularga samarali kurashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan, 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish Strategiyasida global ekologik o'zgarishlar natijasiga moslashish hamda ularni yumshatish, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan va ekotizmlarni asrashga qaratilgan bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini asrash va qayta tiklash va ulardan samarali foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlar, ekologik zonalar, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, tog' va tog' oldi hududlardan samarali foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, bioxilma-xillikni yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish” dan iborat. Yuqoridagilar o'z navbatida, mintaqa turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish bilan bog'liq.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari etib belgilandi:

➤ texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

➤ davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

➤ davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

➤ ta'limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

➤ Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

➤ “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Yuqorida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga albatta o‘z samarasini beradi. Shuning bilan birgalikda turizm sohasini ham YaIMdagi ulushini oshib borishiga xizmat qiladigan dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.


Mamlakatimizning turizmga boy salohiyati quyida keltirilgan turizm yo‘nalishlarini o‘zda aks ettiradi.

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go‘zal tabiat go‘sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko‘l, dengiz bo‘ylari, tog‘ etaklaridagi o‘simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo‘lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog‘lar yoki qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san‘at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan ijtimoiy obyektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreatsion resurslarni quyidagi asosiy belgilariga ko‘ra ajratish mumkin:

- Landshaft
- iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potensial zahirasi;

- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qo‘laylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati



1-rasm. Turizm resurslarining turlari.

1-rasm muallif ijodi.

Turistik resurslarni foydalanish xususiyatiga ko‘ra bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. Bevosita turdagi resurslarga turistlarni o‘zlari to‘g‘ridan – to‘g‘ri foydalanidigan tabiiy va tarixiy – madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdagi resurslarga bevosita turistik resurslardan foydalanish asos bo‘ladigan ijtimoiy – iqtisodiy resurslar – moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi. V.S. Bogolyubov va V.P. Orlovskayalar turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo‘yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qo‘laylik (jozibadorlik);
- Iqlimiy sharoit;
- O‘rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy – demografik xususiyatlari;
- Potensial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Turistik resurslardan sog‘lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: tabiiy va infrastrukturali. Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori.

Har qanday yuqori turistik resurs potensialidan, kommunikasiya, aloqa vositalari, xizmat ko‘rsatish sohalarisiz foydalanib bo‘lmaydi. Umuman olganda,

butun turistik resurslar majmuasini tabiiy – iqlimiy, madaniy – tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy, axborot beruvchi resurslarga bo‘lish mumkin.

Tabiiy-iqlimiy turistik resurslar. Tabiiy - iqlimiy turistik resurslarni asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar.

Tabiiy turistik resurslarning tasnifi mavjud bo‘lib, u ikkiyoqlama xususiyatga ega, bir tomondan tabiiy kelib chiqishi bilan bog‘liq, ikkinchi tomondan turizm uchun iqtisodiy ahamiyati tomonidan aks etishidir. Tabiiy resurslar qo‘yidagicha guruhlanadi:

1. Kelib chiqishiga ko‘ra:

tabiiy - (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);
biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);
axborot beruvchi - tabiatdan o‘ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo‘lib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko‘ra:

mineral suvlar;
botqoqlar;
tuzlar;
o‘rmonlar.

3. Resurslarning tugashi darajasiga ko‘ra:

tugaydigan tabiiy resurslar, ular o‘z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo‘linadi

tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to‘lqinlari, suvlar kiradi.

4. O‘zi qayta tiklanishi va o‘sishi imkoniyatiga ko‘ra:

qayta tiklanadigan resurslar, bunga o‘rmonlarni misol keltirish mumkin, o‘rtacha 50 yilda qayta tiklanadi.

qayta tiklanmaydigan resurslar.

1-jadval

Mintaqada turizm rivojlanishining asosiy afzalliklari

Asosiy bloklar	Tarkibiy elementlari
Hududiy resurs	1. Mintaqa hududi (turistikoqimlar yo‘nalishi sifatida) 2. Mintaqaviy turizm rivojlanishining asosi bo‘lgan hududning tabiiy-jo‘g‘rofiy, tarixiy madaniy xususiyatlari

	va resurslari
Ijtimoiy-iqtisodiy	1. turistik ehtiyojlarni qondirish 2. mahalliy mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik 3. turizmning rivojlangan turlari to'g'risida ma'lumotning mavjudligi
Tashkiliy-boshqaruv	1. Mintaqada turistik faoliyatni tashkil etish va moliyaviy ta'minlash 2. Turistik infratuzilmaning rivojlanishi 3. Mintaqadagi transport ta'minoti 4. Mintaqaviy rejalashtirish va turizm rivojlanishini boshqarish 5. Mintaqada sayyohlar xavfsizligini ta'minlash

1-jadval Muallif ijodidan.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni ko'rish mumkinki rekreatsion turizm mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rolini oshirishda samarali natijalarni keltirib chiqaradi.

Yurtimiz rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar asosida Vatan, xalq manfaati turibdi. Umumiy sohalarda rivojlanishlar olib borilyapti. Shunday ijobiy o'zgarishlarning, rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqish uchun, hammamiz o'z faoliyatimizni chin dildan bajarishimiz, jonkuyar bo'lishimiz kerak. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish yuzasidan sohada faoliyat olib boradigan mutaxassis sifatida takliflarim:

- turizmni targ'ib etishni jadallashtirish;
- har bir sub'ektlarda sayyohlik bilan shug'ullanishda imtiyozlar berish;
- transport korxonalariga yanada imtiyozli kreditlarni ajratish;
- maktab, kollej, litsey hamda kasb-hunar maktablarida turizmga oid fanlarni kiritish;
- mintaqadagi turizm resurslarini targ'ib etuvchi milliy kontentlarni yaratish va targ'ibotni kuchaytirish kabi amaliy ishlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. A.N.norchayev, T.B.Sadikov, M.Z.Nurfayziyeva Mintaqaviy turizm resurlari o'quv qo'llanma Toshkent-iqtisodiyot-2019
2. IMPORTANCE OF MARKETING RESEARCH IN TOURISM Salomov Farrukh Teacher of Karshi State University
3. Мухитдинов Ш.Х., Саломов Ф. Минтақа туризмда хизмат кўрсатиш корхоналарининг гуруҳлаш ва уларни иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини таҳлил қилиш усуллари

4. ПУТИ УСКОРЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ПОВЫШЕНИЯ ЕГО РОЛИ В ЭКОНОМИКЕ Ф.К.Саломов преподаватель КаршиГУ

5. Kun.uz

6.Uzbekturizm

RESPUBLIKAMIZ SUV OMBORLARIDAN TURIZM MAQSADIDA FOYDALANISH MASALALARI

Suyarqulov Nizomiddin Maxmatqulovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Suv omborlaridan, asosan, suvni yig'ish, saqlash, xalq xo'jaligida foydalanilsa-da, suv omborlarining boshqa istiqbollarini ko'rib chiqamiz. Suv omborlaridan turistik maqsadlarda foydalanish mumkin. Bu esa Respublikaning turizm salohiyatini rivojlantirish, bu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Abstract: Although water reservoirs are mainly used for water collection, storage, and national economy, we will consider other perspectives of water reservoirs. Reservoirs can be used for tourist purposes. This creates favorable conditions for the development of tourism potential of the Republic and the active attraction of investments in this field.

Аннотация: Хотя водохранилища в основном используются для сбора, хранения воды и народного хозяйства, мы рассмотрим и другие перспективы водохранилищ. Водоемы могут использоваться в туристических целях. Это создает благоприятные условия для развития туристического потенциала республики и активного привлечения инвестиций в эту сферу.

Kalit so'zlar:Suv omborlari, turistik maqsad, ekoturizm, muhofaza qilish zonalari, dam olish obyektlari, turistik maqsadlar, turizm salohiyati

Key words: Reservoirs, tourist destinations, ecotourism, protected areas, recreational facilities, tourist destinations, tourism potential

Ключевые слова: Водоемы, туристические дестинации, экотуризм, охраняемые территории, рекреационные объекты, туристские дестинации, туристический потенциал.

Suv ombori — to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi. Kompleks foydalanishga mo'ljallangan Suv ombori xalq xo'jaligidagi bir qancha tarmoqlar (sug'orish, suv ta'minoti, elektr energiyasi, kemachilik, baliqchilik, toshqinlarga qarshi kurashish va boshqalar) ehtiyojini qondiradi. Yil davomida daryo oqimlarining o'zgarib turishi va uning

hudud bo‘ylab notekis taqsimlanganligi Suv ombori barpo etishga zarurat tug‘diradi. Suv ombori oqimni fasllar va yillar bo‘yicha tartibga soladi, kanal va boshqa suv o‘tkazish inshootlari bilan birga hududlar bo‘ylab qayta taqsimlashga imkoniyat yaratadi.

So‘nggi yillarda respublikaning turizm salohiyatini rivojlantirish, bu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga, mamlakat suv omborlarining turizm namoyishi obyektiga va rekreatsiya zonalari sifatidagi salohiyati to‘liq ishga solinmagan, ularning hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilmagan.

Suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida ekoturizmni rivojlantirish, aholi va xorijiy mehmonlarning dam olishlari uchun suv resurslaridan faol foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Oldingi tahrirga qarang.

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra, suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida ekoturizmni tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga arizada ko‘rsatilgan, lekin ellik yildan uzoq bo‘lmagan muddatga, “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali uzoq muddatli ijaraga yer uchastkalari beriladi.

O‘zbekistonning 8 ta viloyatida dam olish uchun suv omborlari ochiladi. Bunda gap Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Andijon, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari haqida bormoqda. Jami 18 ta suvda dam olish zonalarini tashkil qilish rejalashtirilmoqda. Avvalroq Fransiyaning turizm va rekreatsiya zonalari yaratish sohasida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalarini “Chorvoq” erkin turistik zonasini yaratish doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarga jalb qilish masalalarini muhokama qilingan edi. Fransiyaning turizm sohasidagi Orex Loisirs, Compagnie des Alpes, Geode, Egis, Epode va Patriarche kompaniyalaridan iborat konsorsiumi 21-noyabr Fransiya elchisi ishtirokida Toshkent viloyati hokimiyati bilan bitim imzoladi. Mazkur bitim Fransiya hukumati tomonidan “Chorvoq” erkin sayyohlik zonasini loyihalashtirish bo‘yicha mablag‘ ajratilganidan so‘ng imzolandi.

Farg‘onada “Karkidon” suv ombori atrofida 100 ming sayyoh uchun turizm zonasi tashkil qilinishi mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyati hududidagi “Karkidon” suv ombori atrofida har yili 100 ming nafar sayyoh uchun xizmat qiladigan zamonaviy turizm zonasini tashkil qilish imkoniyati mavjudligini aytdi. Bu haqda davlat rahbari Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan videoaloqa shaklidagi yig‘ilishda ma’lum qildi.

Ko‘rsatilgan hududda quyidagi turistik xizmatlarni tashkil etish mumkin bo‘ladi:

- ekoturlar (ilmiy, sarguzasht va boshqalar);

- havaskorlar uchun baliq ovi;
- qayiqda suzish, suv sayohati;
- suv omborlari dambalari ustida ko‘rish maydonchalari tashkil qilish;
- kemada sayohat;
- yaxting;
- Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda turizm xizmatlarining boshqa turlari.

Navoiy viloyati To‘dako‘l suv xavzasida turizm rekriatsion zonalar yaratiladi. Muxtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning islohotlari natijasida bugungi kunda Turizm sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mana shunday islohotlar natijasi o‘laroq Navoiy viloyatida turizm salohiyatini targ‘ib qilish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalangan holda turistlar oqimini ko‘paytirish va viloyatning ijobiy qiyofasini shakllantirish hamda Navoiy viloyatining To‘dako‘l suv xavzasida turizm rekriatsion zonalar barpo etish borasida chora-tadbirlar bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda. To‘dako‘l suv xavzasida turizm rekriatsion zonalar barpo etilishi hamda turizm loyihalarning ishga tushirilishi xorijiy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatini 3 barobarga (45-50 mingtagacha), mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatini esa 5 barobarga (1,5 mln.) oshirish imkoniyati hamda sayyohlarni mazkur hududda kamida 2-3 kun ushlab qolish imkoni yaratiladi.

